

BUYUK ASARNI TARJIMA QILGAN MOHIR TARJIMON ALIXONTO'RA SOG'UNIY

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8401566>

Zarifjon Arslonov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti.

O'zbekistan. Toshkent shahar, 100011, A.Qodiriy ko'chasi. 11-uy.

E-mail: arslonovzarifjon007@gmail.com

Annotatsiya

Alixonto'ra Sog'unuy hayoti davomida asar yozish bilan birga bir qator asarlarni tarjimasi bilan ham shug'ullangan. Shunday tarjimalardan dastlabkisi vengriyalik sharqshunos Arminiy Herman Vamberining "Geschichte Bucharas oder Transoxaniens"¹²⁷ ("Buxoro yohud Movarounnahr tarixi") nomli asaridir. Sog'unuyning yozishicha Vamberining kitobida yurtimizda qabila va davlatchilik boshlanganidan to chor hukumati bostirib kelgunga qadar bo'lgan tarix alohida-alohida bob shaklida bayon qilingan.

Maqolada ushbu asar yaratilishiga asos bo'lgan manbalar va undagi voqealarning bayoni to'liq ochib berilgan.

Kalit so'zlar

Sog'unuy, Vamberi, tarix, tohiriylar, safforiylar, somoniylar, g'aznaviylar, qoraxoniylar.

KIRISH

Alixonto'ra Sog'unuy arab, fors va usmonli turkcha kabi bir qator tillarni bilgan. Shu sababli ham mazkur tillarda bitilgan kitoblarning ko'pi bilan tanish bo'lgan hamda o'z asarlarini yozishda ulardan manba sifatida foydalangan. Olim Toshkentda o'tkazgan o'ttiz yillik hayoti davomida faqatgina asarlar yozish bilan cheklanib qolmadi, balki bir necha asarni o'zbek tiliga tarjima ham qildi.

Sog'unuyning tarjima asarlaridan dastlabkisi vengriyalik sharqshunos Arminiy Herman Vamberining (1812–1913) "Geschichte Bucharas oder Transoxaniens"¹²⁸ ("Buxoro yohud Movarounnahr tarixi") nomli asari bo'ldi. Asar muallifining shaxsiyati va faoliyati Sog'unuy uchun muhim jihatlarda biri sanalgan. Shu sababli ushbu o'rinda muallif haqida qisqacha ma'lumot keltirish maqsadga muvofiq deb topildi. A.Vamberi vengriyalik turkolog bo'lib, u o'n oltita tilni bilgan, shular orasida turk tili ham bor edi. Unga ko'ra, venger tilining o'zagi tatar tili (turk tili)

¹²⁷ Vamberi A. Geschichte Bucharas oder Transoxaniens. – Stuttgart: Hansebooks, 1872. – I–II vol.

¹²⁸ Vamberi A. Geschichte Bucharas oder Transoxaniens. – Stuttgart: Hansebooks, 1872. – I–II vol.

va vengerlarning ildizi turklarga borib taqaladi. Ushbu fikrlari uchun u “panturkizm otasi” sifatida ham tanilgan. Olim chig’atoy (o‘zbek) tili yuzasidan ham tadqiqotlar olib borgan va Abushka lug‘atini tarjima qilib, Vengeriya Fanlar Akademiyasiga jo‘natgan. A.Vamberi 1863-yili Eron yo‘li orqali O‘rta Osiyo tomon sayohatga chiqib, Xiva, Buxoro, Samarqand va Hirotda bo‘lgan. Ushbu hududlarda ko‘rgan-kechirgan, o‘qigan ma‘lumotlarini kitob holiga keltirib, 1864-yili “O‘rta Osiyoga sayohat” nomi ostida Londonda nashr ettirgan. Muallif umri davomida o‘ttiz sakkizta asar yozgan, shuningdek, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini venger tiliga va Saydiy Ali Raisning “Mir’at ul-mamolik” asarini ingliz tiliga tarjima qilgan. A.Vamberining Sog‘uniy tomonidan tarjimasi amalga oshirilgan “Geschichte Bucharas oder Transoxaniens” (“Buxoro yohud Movarounnahr tarixi”) nomli asari esa 1872-yili chop etilgan¹²⁹. Ushbu asar O‘zbekiston tarixining qadimgi davrlaridan to XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga olgani va ko‘plab birlamchi tarixiy manbalar asosida yozilgani jihatidan alohida ahamiyatga ega. Bu haqida R.Rahmon “Qishloq haqiqati” gazetasining 1992-yil 1-fevral sonida chop etilgan “Alixonto‘ra Sog‘uniy” sarlavhali maqolasida Alixonto‘ra Sog‘uniy tilidan quyidagilarni yozadi: “Vamberining kitobida yurtimizda qabila va davlatchilik boshlanganidan to chor hukumati bostirib kelgunga qadar bo‘lgan tarixlar bobma-bob bayon qilingan. Vamberi Buxoroga qalandar niqobida kelib, amir dargohiga yetib shuhrat topgan. Unga mol-mulk, yer-suv in‘om qilishganida ularni qabul qilmay: “Xazinangizdagi tarix kitoblarini o‘qishimga ijozat bersangiz, menga bundan ortiq mukofot yo‘q” deb, bu tilagiga erishgan. Kitobda o‘n besh tarixchining asarlari davr-davr bilan bayon qilingan. Mening ham ko‘nglimda Turkiston tarixini yozish istagi bor edi, ammo men Vamberi o‘qigan eski tarix kitoblarining sakkiztasinigina o‘qiganman. Qolgan yettitasini topib o‘qishga imkonim yo‘q, umrim ham yetmasa kerak. Shuning uchun Vamberi janoblarining kitobini tarjima qilib qo‘ya qoldim”¹³⁰. Alixonto‘ra aytgan o‘n beshta asarni A. Vamberi o‘z kitobining kirish qismida birma-bir sanab o‘tgan. Bular Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir Tabariyning “Tarixi Tabariy”, Abulfazl Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy”, Mirxondning “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk val-xulafo”, Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi Jahongusho”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’ us-sa‘dayn va majma’ ul-bahrayn”, Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai turk”, Mirzo Muhammad Mahdiyxonning

¹²⁹ Akpinar T. Vambery, Arminius // Islam Ansiklopedisi, 42. c. – Istanbul. – 501–502 s.

¹³⁰ R. Rahmon. Alixonto‘ra Sog‘uniy // Qishloq haqiqati gazetasi. 1992-yil 1 fevral soni.

“Tarixi Nodirshoh”, Muhammad Taqiy Sipehrning “Nasix at-tavorix / Tarixi Qojariy”, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning “Tarixi Buxoro”, Sharofiddin Roqimning “Tarixi Roqimiy”, “Tarixi Roqim”, “Tarixi Mirsaid Sharif Roqim”, “Tarixi kasira” nomlari bilan mashhur bo’lgan asari, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” hamda Mirzo Muhammad Sodiq ibn Abduvali Munshiy Jondoriyning “Dahmai Shohon” asarlaridir¹³¹. Ushbu asarlarga e’tibor qaratilsa, ularning har biri O’zbekiston tarixining turli davrlarini yoritishga xizmat qiladi. Masalan, Muhammad Tabariyning “Tarixi Tabariy” nomi bilan mashhur bo’lgan “Tarix ul-umam va-l-muluk” asarida arablarning Movarounnahrqa kirib kelishi, tohiriylar, safforiylar, somoniylar sulolalarining hukmronligi va o’sha davr siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma’lumotlar berilgan¹³². Abulfazl Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy” yoki “Tarixi Mas’udiy”, “Jome’i tarixi oli Sabuktegin”, “Mujalladatu Abulfazl Bayhaqiy” nomlari bilan mashhur bo’lgan asarida 963–1186-yillar oralig’ida hukmronlik qilgan g’aznaviylar sulolasiga oid ma’lumotlar yoritilgan. Xususan unda Mahmud G’aznaviyning vafot etishi bilan boshlangan siyosiy tarqoqlik va vorislar o’rtasidagi taxt uchun kurash masalasi, shuningdek, sulola asoschisi Sabuktegin bilan bog’liq ba’zi voqealar, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar va saljuqiylar bilan bog’liq ma’lumotlar keltirilgan¹³³. Mirxondning “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk val-xulafo” nomli umumiy tarix janrida yozilgan asarida arablarning kirib kelishi va ularning hukmronligi, tohiriylar, safforiylar, somoniylar, g’aznaviylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolalari, mo’g’ullar bosqini, Amir Temur va temuriylar hamda Muhammad Shayboniyxon bilan bog’liq ma’lumotlar mavjud. Shu kabi yuqorida nomlari keltirilgan boshqa asarlarda ham O’zbekiston tarixining ma’lum va asosiy qismlari yoritilgan.

Sog’uniy tarjima qilgan ushbu asarning dastlabki qismi “Arablarning hujumi, islomni qabul qilish” nomi ostida bo’lib, unda O’zbekistonning 46–96/666–714-yillar oralig’idagi tarixi, xususan, arablarning Movarounnahr hududlariga kirib kelishi va ular orqali islom dinining yoyilishi haqidagi ma’lumotlar muxtasar shaklda yoritilgan. Keyingi qism 96–261/714–874-yillar oralig’ida arablarning Movarounnahrni boshqarishda duch kelgan qiyinchiliklari, jumladan, turklar bilan bo’lgan janglar, Muqanna, Abu Muslim qo’zg’alonlari keltirilgan. Undan keyin somoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi va Ismoil Somoniy bilan bog’liq

¹³¹ Vambery A. History of Bokhara from the earliest period down to the present. – London: Henry S. King & Co., 1872. – 419 pp.

¹³² Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix al-umam val-muluk. Noshir: Muhammad Abulfazl Ibrohim. – Qohira, 1960 – 1970. I–XI j.

¹³³ Abulfazl Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. Qosim G’ani va Ali Akbar Fayyoz nashri. – Tehron, 1324/1913. – I – II j.

261-295/874-907-yillar oralig'idagi ma'lumotlar berib o'tilgan. Somoniylarning qulashi va turklarning kuchayishi 295-395/907-1004-yillar oralig'idagi ma'lumotlar sifatida keltirilgan. Asarning keyingi qismlari quyidagi nomlar ostida berilgan: "Saljuqiylar (395-528/1004-1133)", "Uyg'urlar va xorazmshohlar (528-615/1133-1218)", "Mo'g'ullar istilosi (615-624/1218-1226)", "Chingiziylar (624-765/1226-1363)", "Amir Temur (765-807/1363-1405)", "Temur shaxsiyati", "Temuriylar (807-906/1405-1500)", "O'zbeklar va Shayboniy Muhammadxon (906-916/1500-1510)", "Shayboniylar (916-1006/1510-1597)", "Dastlabki ashtarxoniylar (1006-1099/1597-1688)", "Subhonqulixon va so'nggi ashtarxoniylar (1099-1150/1680-1737)", "Mang'itlar sulolasi va amir Ma'sum (1199-1242/1784-1826)", "Amir Nasrulloh (1242-1277/1826-1860)", "Amir Muzaffariddin va romanovlar xonadoni (1277-1287/1860-1870)"¹³⁴. Ko'rinib turibdiki, Sog'uniy A.Vamberining ushbu asarining muhimligini birinchilardan bo'lib tushunib yetgan va uning tarjimasini amalga oshirgan. R.Rahmon o'z maqolasida Alixonto'raning ushbu tarjima haligacha topilmaganini, ammo uning to'liq tarjima qilingani haqida ishonchli ma'lumotlar mavjudligini hamda Sog'uniy uni saqlash uchun O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining¹³⁵ kutubxonasiga topshirib qo'yganini qayd etgan¹³⁶. "Sog'uniy: Uch kitobdan iborat Manoqib" asarida Alixonto'raning o'g'li Qutlug'xonto'ra Shokirov Y.Xo'jamberdiyevga maktub yo'llagani, unda Alixonto'raning mazkur tarjima asarni usmonli turkcha, tatarcha, arabcha va forscha so'zlari ko'p bo'lgan F.Karimiy va B.Sharaf nusxalari asosida tarjima qilgani, sovet zamonida xush ko'rilmagani sababli nashr etilmay, oila arxiviga qo'shib qo'yilgani yozilgan¹³⁷. Ushbu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, F.Karimiy va B.Sharaf nusxalari XX asrning 20-yillarida Buxoro Xalq Maorif Nozirligi nashriyotining tashabbusi bilan turkchaga tarjima qilingan. Bu tarjima ham o'z navbatida Arkadiy Pavlovskiy tomonidan nemis tilidan ruschaga tarjima qilingan nusxaga asoslangan¹³⁸. Mazkur asarning o'zbek tiliga qilingan ikkinchi tarjimasini esa Tohir Qahhor tomonidan 1990-yilda amalga oshirilgan¹³⁹. Bu tarjima ham F.Karimiy va B.Sharaf nusxalari asosida amalga oshirilgan.

XULOSA

Sog'uniy qalamiga mansub kitoblar va tarjima asarlarda ko'plab alohida e'tirofga loyiq jihatlar mavjud. Masalan, olim ularning barchasida iloji boricha sof

¹³⁴ Vambery A. History of Bokhara from the earliest period down to the present. – London: Henry S. King & Co., 1872.

¹³⁵ Hozirgi O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi.

¹³⁶ Rahmon R. Alixonto'ra Sog'uniy // Qishloq haqiqati gazetasi. 1-fevral soni, 1992.

¹³⁷ Xo'jamberdiyev Y. Sog'uniy: Uch kitobdan iborat Manoqib. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 385–386.

¹³⁸ Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Turkiston to'plami"ning 70–71 jildlari.

¹³⁹ Vamberi H. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adpbiiyot va san'at nashriyoti, 1990.

o'zbekcha so'zlarni ishlatishga hamda gaplarni sodda xalqchil tilda bayon qilishga harakat qilgan va bunga sezilarli darajada erishgan ham.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmon R. Alixonto'ra Sog'unuy // Qishloq haqiqati gazetasi. 1-fevral soni, 1992.
2. Xo'jamberdiyev Y. Sog'unuy: Uch kitobdan iborat Manoqib. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 385–386.
3. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan “Turkiston to'plami” ning 70–71 jildlari.
4. Vamberi H. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adpbiyot va san'at nashriyoti, 1990. Abulfazl Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. Qosim G'ani va Ali Akbar Fayyoz nashri. – Tehron, 1324/1913. – I – II j.
5. Vambery A. History of Bokhara from the earliest period down to the present. – London: Henry S. King & Co., 1872.
6. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix al-umam val-muluk. Noshir: Muhammad Abudfazzl Ibrohim. – Qohira, 1960 – 1970. J. I–XI.
7. Islamov Z. Codicological Analysis of Manuscripts of “Mukaddamatu-l-Adab” of Mahmud Zamakhshari in the Funds of the World //The Light of Islam. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 30-36.
8. Islomov Z. International Islamic Academy of Uzbekistan—a result of the reforms worth to the centuries //The Light of Islam. – 2018. – T. 1. – №. 1.
9. Islomov Z. The role of the international Islamic academy of Uzbekistan in the development of Islamic studies //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 1.
10. Islomov Z. Source studies analysis of manuscripts of “muqaddimatu-ladab” in foreign archival funds //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 41.
11. Islamov Z. et al. WRITING DOWN OF HADITHS IN THE VII-VIII CENTURIES: APPROACHES AND METHODS //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 5536-5545.
12. Maxsudov D. Развитие исламоведения (корановедения) в Узбекистане: история и современность //Вестник КазНУ, Серия Религиоведение. – 2020. – T. 21. – №. 1. – C. 60-67.

13. Maxsudov D. Razvitie islamovedenija (koranovedenija) v Uzbekistane: istorija i sovremennost' //Chabarşy. Dintanu serijasy. – 2020. – T. 21. – №. 1. – С. 60-67.
14. Maxsudov D. The development of transmitted and rational tafsirs //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – С. 9.
15. Makhsudov D. Muslim world scientists of the temurids period //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 3. – С. 4.
16. Makhsudov D. Manuscripts of abul barakat al-nasafi's works on furu'Al-Fiqh //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2023. – T. 12. – №. 1. – С. 31-34.
17. Mahsudov D. IX-XV асрларда Мовароуннаҳрда ёзилган тафсирларнинг хусусиятлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 14. – С. 311-314.
18. Makhsudov D. R. Mufassirs of Mawarannahr //ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80). – 2019. – С. 539-543.
19. Makhsudov D. R. МУФАССИРЫ МАВЕРАННАХРА В СРЕДНИХ БЕКАХ //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 539-543.
20. Makhsudov D. A GENIUS OF THE WORLD //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 5. – С. 544-548.
21. Ugli A. Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNIY IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2020. – №. 24 (76). – С. 32-33.
22. Arslonov Z., Ergashev H. ALIKHANTORA SOGUNIY'S VIEWS ON POLITICAL GOVERNANCE IN EAST TURKESTAN //Студенческий вестник. – 2020. – №. 32-2. – С. 84-85.
23. Zokirjonugli Z. A. Approaches to studying the scientific heritage of Alikhantora Soguni //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 1
24. Zokirjonugli Z. A. APPROACHES TO STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ALIKHANTORA SOGUNI.
25. Arslonov Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNIY IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости, 2020. – №. 24-2. – С. 9-11.